

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLIYAVIY HISOBOT TUZISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

*Axmadaliyev Zoxidjon Zokirjonovich
Oltinko'l iqtisodiyot va servis texnikumi
o'qituvchisi.*

*Xamidova Xilola Ahmadullo qizi
II-bosqich talabasi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada moliaviy hisobot xalqaro standartlarining Respublikamiz Iqtisodiyotida foydalanish. Aksiyadorlik jamiyatlarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar tuzish va bu borada xorijiy mamlakatlarning tajribasi, xususan, AQSH, Yevropa Ittifoqi va boshqa rivojlangan davlatlarning hisobot tizimlari, moliyaviy shaffoflikni ta'minlash va investorlarga aniq ma'lumot yetkazish borasida yuqori samaradorlikka ega ekanligini anglaymiz.

Kalit so'zlar: Konsolidatsiya, shu'ba jamiyatlar, moliyaviy shaffoflik, kanseptual asoslari, interpritatsiya, aksiyadorlik jamiyatlar, investorlar.

Аннотация: В данной статье рассматривается применение международных стандартов финансовой отчетности в экономике нашей республики. Мы понимаем, что подготовка консолидированной финансовой отчетности в акционерных обществах и опыт зарубежных стран в этом отношении, в частности, системы отчетности США, Евросоюза и других развитых стран, являются высокоэффективными в обеспечении финансовой прозрачности и предоставлении инвесторам достоверной информации.

Ключевые слова: Объединение, филиалы компаний; Финансовая прозрачность; Концептуальные основы; Интерпретация; Акционерные общества; Инвесторы.

Annotation: This article examines the application of international financial reporting standards in the economy of our republic. We understand that the preparation of consolidated financial statements in joint-stock companies and the experience of foreign countries in this regard, in particular, the reporting systems of the United States, the European Union and other developed countries, are highly effective in ensuring financial transparency and providing investors with reliable information.

Keywords: Mergers, branches of companies; Financial transparency; Conceptual framework; Interpretation; Joint-stock companies; Investors.

KIRISH

Bugungi globallasuv davrida Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari xorijiy mamlakatlar, aksiyadorlik kompaniyalari, konsernlar, qoshma korhonalarda moliyaviy

hisobot standartlarining yaqinlashishida, kelishuvida va yanada yaxshilanishida muhim ro'l o'yamoqda.

So'ngi yillarda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari butun jahonda yanada kengroq foydalanilmoqda va tan olinmoqda. Xatto ba'zi mamlakatlar Moliyaviy hisobotlar Xalqaro standartlari(MHXS)ni o'z standartlaridek o'zgarishlarsiz ishlatsa, ba'zilarida esa mamlakat xususiyatidan, qonunchiligidan kelib chiqib ba'zi o'zgarishlarni kiritmoqda.

Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga o'tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxasislarini xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish imkoniyatini bermoqda.

O'zbekistonda 2020 yildan boshlab, Davlat ulushi bo'limgan xo'jalik jamiyatlari va davlat korxonalarining moliyaviy hisobot xalqaro standartlari asosida buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlashga o'tish jadvali har yili tasdiqlanishi va 1 Iyunga qadar rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi takidlangan.

Bu qonunga muvofiq moliyaviy hisobotni ixtiyoriy ravishda Moliyaviy hisobot xalqaro standartlariga muvofiq tayyorlaydigan tadbirkorlik sub'yektlari buxgalteriya hisobining milliy standartlari bo'yicha Moliyaviy hisobot topshirish ya'ni taqdim etish Yevropa komissiyasi ham Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlariga hisobotning va umuman buxgalteriya hisobining muvofiqlashishi nuqta'i nazaridan Yevropa Ittifoqida adolatli va samarali raqobat muxitini nazardan muhim ekanligini e'tirof etadi.

Hozirgi vaqtida Aksionerlar va boshqa foydalanuvchilar uchun tayyorlanayotgan moliyaviy hisobotlarda mamlakatdan mamlakatga o'tib borayotgan, ayrim hollarda bir mamlakatdagina foydalanadigan Buxgalteriya hisobotlarida taqqoslanuvchanlik yetishmasligi mumkin, bu holatning noqulayligi shundaki, moliyaviy hisobotdan foydalanadigan investitsion taxlilchilar va boshqa foydalanuvchilar hisobotni taxlil qilish jarayonida uning turli standartlariga binoan tuzilganligi tufayli qo'shimcha xarajatlar qilishiga to'g'ri keladi. Ular hisobotlar interpretatsiyasida chalkashliklarga duch kelishlari ham mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Moliyaviy hisobotni maqsadi moliyaviy ahvol, faoliyat natijalari va moliyaviy ahvoldagi o'zgarishlar haqida ma'lumot taqdim etishdan iboratdir. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi ma'lumot keng doiradagi foydalanuvchilarga ya'ni aksiyadorlarga, investorlar, Soliq Qo'mitasi, Statistika, kiriditorlar tomonidan qarorlarni qabul qilish uchun zarurdir.

Moliyaviy hisobot foydalanuvchilar tomonidan qabul qilinadigan iqtisodiy qarorlar, korxonani pul mablag'lari va ularni ekvivalentlarini yaratish va ko'paytirish, shuningdek bu jarayonni barqarorligi va o'z vaqtida amalga oshirilishi imkoniyatini

baxolashni talab etadi. Foydalanuvchilar, korxonaning pul mablag'lari va ularni ekvivalentlarini yaratish qobiliyatini baxolash uchun korxonaning moliyaviy ahvoli, faoliyat natijalari va moliyviy ahvoldagi o'zgarishlarga yo'naltirilgan ma'lumotlarga ega bo'lish kerak.

Moliyaviy hisobotni tarkibiy qisimlari bir biri bilan uzviy bog'liqdir, chunki ular bir xil operatsiyalar va hodisalarni turli jabhalarini aks ettiradi. Hisobotning har bir shakli boshqalardan farq qiladigan ma'lumotni berishiga qaramasdan, hech biri bir ashyo yakkalanib qolmaydi va foydalanuvchilar uchun muayyan ehtiyojlarni aks ettiruvchi kerakli bo'lgan barcha ma'lumotni yetkazib bera olmaydi.

Misol: foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot, muvozanat va moliyaviy ahvolni o'zgarishi haqidagi hisobtlarning ma'lumotlarisiz foydalansa, korxonaning moliyaviy natijalari haqida to'liq axborotni bera olmaydi.

Belgilangan vaziyatlarni bajarish uchun moliyaviy hisobot hisoblash tamoyili asosida tuzilishi zarur.

U hisobga olish mezonlariga muvofiq daromadni qachon hisobga olish va uni qachon hisobotlarda aks ettirish kerakligini belgilaydi.

Hisoblash tamoyiliga muvofiq, tovarlar sotilishidan olingan daromad xaridor ushbu tavarlarning egasi bo'lganda ya'ni egalik huquqi bilan bog'liq bo'lgan barcha tavakkalchiliklar va mukofotlar unga o'tganda hisobga olinadi.

Konsolidatsiya – ushbu termin lotincha "solid" o'zagidan kelib chiqqan "qattiq", "mustahkam" va "hamjihatlik" degan ma'nolarni bildiradi.

Siyosiy sohada esa "birlashtirish", "jipislashtirish", va "markazlashtirish" degan tushunchaga ega. Konsolidatsiya partiya a'zolari yoki faollarining qandaydir g'oya yoki shaxs atrofida birlashishini anglatadi. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot haqida manashu siyosiy atamalar negizda ko'rib chiqamiz.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar – hisobot sanasidagi moliyaviy ahvolni va xo'jalik yurituvchi jamiyatlar guruhining hisobot davri uchun moliyaviy natijalarni aks ettiruvchi ko'rsatkichlar tizimi. Alovida moliyaviy hisobotlar – guruh har bir a'zosining Konsolidatsiyalash lozim bo'ladi.

Bugungi kunda Aksiyadorlik jamiyatlari uchun xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida moliyaviy hisobotni yuritish dolzarb masalalardan biri. Global iqtisodiy muhitda investorlar va kreditorlar uchun aniq, shaffof va taqqoslanadigan moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Moliyaviy hisobot xalqaro standartlari -global hisob-kitob standartlari bo'lib ularning asosiy maqsadi turli mamlakatlarda faoliyat yurituvchi kompaniyalarning moliyaviy ma'lumotlarini yagona formatda taqdim etishdir. Aksiyadorlik jamiyatlari xalqaro moliyaviy hisobot yuritish orqali ;

- investorlar uchun shaffoflikni ta'minlaydi;
- xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatini kengaytiradi;

- moliyaviy axborotlarning ishonchlilagini oshiradi.

Aksiyadorlik jamiyatlari odatda quyidagilarga asoslanib xalqaro moliyaviy hisobotni tayyorlaydi:

- moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot (Balans)
- moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot;
- pul oqimlari hisobotlari;
- kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobot.

Konsolidatsiyalashgan (Markazlashtirilgan) hisobot va uning zarurati;

Aksiyadorlik jamiyatlari ko'pincha yirik korporativ guruhlarining bir qismi bo'lib, ularning tarkibida shu'ba korxonalar va filiallar mavjud bo'ladi. Shu sababli. Xalqaro moliyaviy hisobot talablariga muvofiq, yirik aksiyadorlik jamiyatlari konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tayyorlash lozim.

Konsolidatsiyalashgan hisobotning asosiy maqsadi:

- butun guruh faoliyatni yagona tashkilot sifatida aks ettirish;
- ichki operatsiyalarni chiqarib tashlash borqali aniq moliyaviy natijalarni taqdim etish;
- investorlar va manfaatdor tomonlar uchun ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot, korporativ guruhning umumiyligi moliyaviy holatini ko'rsatib beruvchi muhim vositadir .

Xorijiy mamlakatlarning tajribasi ,xususan aqsh, yevropa ittifoqi va boshqa rivojlangan davlatlarning hisobot tizimlari,moliyaviy shaffoflikni ta'minlash va investorlarga aniq ma'lumot yetkazish borasida yuqori samaradorlikka ega ekanligi ko'rsatilgan.

10-sod Moliyaviy hisobot xalqaro standartlari talabiga ko'ra shu'ba jamiyatlari, xorijiy va mahalliy jamiyatlarni jiipslashtirgan “bosh jamiyat” konsolidatsiyalashgan hisobot tuzishga majbur.

Shu'ba korxona faqat yaqin kelajakda sotish maqsadida xarid qilingan va uni nazorat qilish vaqtincha bo'lган hollarda konsolidatsiyalashgan hisobot tuzilmaydi.

Shu'ba jamiyat “Bosh jamiyat” tomonidan belgilab qo'yilgan uzoq muddatga mo'ljallangan alohida sharoitda faoliyat ko'rsatgan va bu sharoit uning mablag'ni “bosh jamiyat”ga o'tkazish qobiliyatini ancha kamaytirgan hollarda.

Bunda shu'ba jamiyatlar “moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish” buxgalteriya hisobi milliy standartlariga muvofiq investitsiyalar sifatida hisobga olinishi lozim. Har bir shu'ba jamiyatga “Bosh Jamiyat” investitsiyalarining balans qiymati va boshqa jamiyatning har bir Shu'ba jamiyatning o'z sarmoyasidagi ulushidir.

Aksiyadorlik jamiyatlarida xalqaro moliyaviy hisobot asosida moliyaviy hisobot yuritish va Konsolidatsiyalashgan hisobot tayyorlash xalqaro investorlarga qulaylik yaratadi hamda kompaniyalarini ishonchlilagini oshiradi.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzish jarayonida aniqlik va samaradorlikni oshirish uchun quyidagi takliflar beriladi;

- zamonaviy buxgalteriya tizimlarini joriy etish va avtomashlashtirish;
- xalqaro standartlar asosida moliyaviy tahlil qilish ko'nikmalarini oshirish;
- shu'ba korxonalar uchun yagona hisobot formatini joriy etish.

Aksiyadorlik jamiyatlari uchun Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida Konsolidatsiyalashgan hisobot yuritish global bozorda raqobatbardoshlik oshirishga va investorlarning ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Aksiyadorlik jamiyatlari uchun investitsiya kiritish jarayoni yanada jadallahadi. Bu esa aksiyadorlik jamiyatlari tarmoqlari ya'ni shu'ba jamiyatlarini ko'payishiga olib keladi. Jamiyatini faoliyati rivoji uchun Xalqro moliyaviy hisobot standartlari muhim ro'l o'yaydi.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot, korporativ guruhning umumiy moliyaviy holatini ko'rsatib beruvchi muhim vositadir .

Xorijiy mamlakatlarning tajribasi ,xususan aqsh, yevropa ittifoqi va boshqa rivojlangan davlatlarning hisobot tizimlari,moliyaviy shaffoflikni ta'minlash va investorlarga aniq ma'lumot yetkazish borasida yuqori samaradorlikka ega ekanligi korsatilgan.

Konsolidatsiyalashgan hisobotlarni tuzish usuli:

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash chog'ida bosh jamiyat va unga qarashli barcha shu'ba jamiyatlar moliyaviy hisobotlari bir xil moddalarini

- majburiyatlarini
- o'z mablag'i
- daromadlari
- xarajatlarini satrma-satr konsolidatsiyalash yo'li bilan birlashtiriladi.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar guruh to'g'risida yagona jamiyat sifatida moliyaviy axborotdan iborat bo'lishi uchun har bir shu'ba jamiyatga "bosh jamiyat" investitsiyalarining balans qiymati va "bosh jamiyata"ning har bir shu'ba jamiyatining o'z sarmoyasidagi ulushi chiqarib tashlanishi kerak. Bosh jamiyat" va shu'ba jamiyatlar o'rtasida o'zaro hisob-kitob qilish schyotlari bo'yicha saldo.

Bosh jamiyatning, shu'ba jamiyatlarining bir hisobot davri uchun bir hisobot vaqtida tuzilgan moliyaviy hisobotlarni hamda kamchilikning ulushlari konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda birlashtiriladi .

Agar biror shu'ba jamiyatining moliyaviy hisoboti (masalan,o'zbekistondan tashqarida joylashgan shu'ba jamiyatining moliyaviy hisoboti) konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot davri uchun ,lekin konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning hisobot vaqtidan farq qiladigan hisobot sanasidan tuzilgan bo'lsa, bunday shu'ba jamiyat o'sha hisobot vaqt uchun oraliq moliyaviy hisobot tuzadi.

Shu'ba jamiyat oraliq moliyaviy hisobot tuzish imkoniyatiga ega bo'lmasa, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotga shu'ba jamiyatining boshqa hisobot davri uchun tuzilgan moliyaviy hisoboti ma'lumotlari ,bu hisobotlarni tuzish o'rtasida o'tgan vaqt 3 oydan oshmagan taqdirda qo'shiladi.

Turli hisobot davrida tuzilgan moliyaviy hisobotlar jamlanayotganda shu sanalar o'rtasida yuz beradigan muhim operatsiyalar yoki boshqa voqealar natijasida hisoblangan o'zgarishlar kiritiladi.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar o'xshash operatsiyalar va moliyaviy-xo'jalik faoliyatining boshqa voqealari uchun yagona hisob siyosatidan foydalanish asosida tayyorlanadi.

Guruh ishtirokchilaridan biri o'xshash operatsiyalar bo'yicha konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzish chog'ida qabul qilingan hisob siyosatidan farq qiladiga hisob siyosatidan foydalangan taqdirda,bu moliyaviy hisobotlarga konsolidatsiyalash chog'ida tegishli o'zgarishlar kiritiladi.agar konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tayyorlash chog'ida yagona hisob siyosatidan foydalanishning imkoniyati bo'lmasa,bu fakt konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning turli hisob siyosati qo'llanilgan moddasi qismida olib berilishi kerak.

Shu'ba jamiyatlar xo'jalik faoliyatining natijalari uni xarid qilingan vaqtidan boshlab konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot ga qo'shiladi.

Xaridor sotib olgan shu'ba jamiyat ustidan nazorat qilishni o'z qo'liga olgan vaqt ya'ni xarid qilingan vaqt hisoblanadi.

XULOSA

Eng avvalo turli davlatlarda tashkil etilgan hisob tizimini tahlil qilish natijasida jahon hamjamiatida qo'llanilayotgan moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlariga moslashtirish, ayniqsa kompaniya va firmalar moliyaviy ko'rsatkichlarga baho berishda va ularning xalqaro miqyosda harakat qilishda va muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan ham O'zbekiston Respublikasidagi aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlar asosida tayyorlash ,molivaviy hisobotning xalqaro standartlarini amaliyotda qo'llashning ishchi rejasи va uning ketma-ketlik dasturini ishlab chiqish lozim.

Shu'ba kampaniyalariga oid investitsiyalar hisobi aksiyadorining xo'jalik yurutuvchi sub'ekt kapitalidagi ulushi hajmini hisobga oluvchi usul bo'yicha amalga oshirilganda quyidagi holatlar mustasno bo'lishi lozim. Agar kapital qo'yilmalar faqat yaqin kelajakda, ya'ni keying navbatdagi sotilishi uchun amalga oshirilsa yoki saqlansa va investor sezilarli ta'siridan boshqa foydalanmaganda.

Shu'ba kompaniya o'z faoliyatini qat'iy cheklashlar sharoitida amalga oshirganida buxgalteriya hisobining o'ziga xos jihatlari vujudga keladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh.T.Ergashev, A.K. Ibragimov, N.K. Rizayev “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari” o’quv qo’llanma. TDIU, 2019 yil;
2. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo’yicha qo’llanma;
3. O’zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to’g’risidagi” Qonuni yangi tahriri O’zR 13.04.2016y.O’R-404-son Qonuni bilan tasdiqlangan.

